

SOVET DAVRIDA BOLALAR KOMISSIYALARINING TASHKIL ETILISHI VA ULARNING FAOLIYATI

Ergashev Ahmad Abdug'afforovich

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

ergashevahmad197@gmail.com

[TEL:+998996702602](tel:+998996702602)

Anotatsiya: Ushbu maqolada sovetlar davrida O'zbekiston hududida bolalar qarovsizligi muommosini bartaraf etish uchun amalga oshirilgan islohatlar hamda bolalar huquqini himoya qilish uchun maxsus komissiyalarning tashkil etilishi hamda ularning faoliyati to'g'risida so'z yuritiladi. Maqolada bolalar qarovsiz qolish sabablari, usha davrdagi ijtimoiy siyosiy ahvolni yoritib berilgan. Ijtimoiy iqtisodiy muommolarga yechim topish uchun amalga oshirilgan islohatlar haqida ma'lumot berilgan. Qalaversa, hududlardagi ijtimoiy siyosiy ahvolni turlicha ekanligini yoritgan. Shuning uchun ham hududlarga turlicha taqsimlanganini yaqqol ko'rsatgan. Maqola Sovet davridagi bolalarning ijtimoiy himoyalani shuniochib bergan.

Kalit so'z: Jamoat ta'minoti, qarovsizlik, ijtimoiy muhofaza, bolalar komissiyasi, ocharchilik, himoya, ijtimoiy ahvol, tashkilotlar, qaror

Rossiyadagi XX asr boshlaridagi iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar aholi qatlamiga o'zining katta ta'sirini o'tkazib, bolalar hayotini og'irlashtirdi. Turli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy muammolar sabab bolalar qarovsiz qolishi, ko'cha qarovsiz bolalar oqimi oshib borishi davlat ishtirokini talab qilgan. O'z navbatida RSFSR bolalari g'amxo'rliги davlat zimmasidaligi belgilanib (01.12.1917 yil Dekret), Jamoat ta'minoti XK, keyinchalik Ijtimoiy ta'minot XK mas'ulligida Nuqsonli bolalar Bo'limi tashkil etilgan (14.01.1918 yil Dekret) 124 va asosiy e'tibor nuqsonli bolalar ta'minoti va ijtimoiy muhofazasiga qaratilgan. Ko'chalarda qarovsiz bolalarning ko'payishi o'z navbatida nuqsonli bolalardan tashqari sog'lom, qarovsiz bolalar uchun ham davlat ta'minoti va g'amxo'rliги zaruratini keltirib chiqargan. Shu maqsadda, mazkur masalaga ko'plab davlat organlari mas'ul bo'lib, 1918 yildan RSFSR Balog'at yoshiga yetmagan bolalarni himoya qilish komissiyasi mas'ul organga aylandi.

Butun mamlakat bo'ylab qarovsizlik katta muammoga aylanib borishi bilan komissiyaga qo'shimcha kuch sifatida 1918-yildan Bolalarni qutqarish Ligasifaoliyati yo'lga qo'yilgan. Shu tartibda RSFSRdagi murakkab vaziyatda ish boshlagan komissiya asosan mazkur davrda mavjud 4 000 000 dan ortiq qarovsiz bo'lgan, otanasidan ayrilgan, boshpana, yegulik, nazoratsiz va parvarishsiz bolalarni davlat ta'minotiga qamrab olish bilan shug'ullangan va 1917-yil 30000, 1918-yil 75 000, 1919-yil 125 000, 1920-yil 400 000 bola qamrovini amalga oshirgan va bundan

tashqari 2 000 000 bolaga davlat tomonidan turli nafaqa, oziq-ovqat va hokazo ko‘rinishidagi yordam ko‘rsatilishiga erishgan. Ammo bolalar qarovsizligi haddan ziyod ko‘payishi va faoliyat yetarli bo‘lmaganligi bois 1921-yil 27-yanvarda BMIQ (Butunittifoq Markaziy Ijro Qo‘mitasi) qoshidagi Bolalar hayotini yaxshilash komissiyasi tashkil topgan va bu komissiya asosiy faoliyati barcha davlat organlari hamda tashkilotlarini mazkur masala yo‘lida birlashtirishga qaratilgan.

Markazdagi bolalar qarovsizligi masalasi bo‘yicha komissiyalar faoliyati hududlarda ham joriy etila boshlagan. 1918-yil 20-noyabrda Turkiston o‘lkasi ochlarga yordam markaziy komissiyasi (O‘OYO MK) Turkistonda mavjud va Volgabo‘yi, Uraloldi hududlaridan (rasman 320 000 kishi) keltirilayotgan aholi vakillari, xususan, bolalarga ko‘maklashish maqsadida tuzilgan. Komissiya 1921-yil 21-iyuldan Turkiston MIQ qoshidagi Ochlarga yordam Markaziy komissiyasi sifatida qayta nomlanib, ocharchilik mintaqa vakillarini kutib olish, g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, shuningdek ocharchilik o‘lkalariga alohida yordam ham ko‘rsatgan. Jumladan, OYO MK 1921 yil oktyabrda 10 000 000 rubl pul, 2 000 pud (1 pud – 16.8 kg) g‘alla Boshqirdistonga yordam sifatida ajratilgan. Shu tarzda faoliyatini davom ettirgan komissiya tarkibida 3 nafar xodim bilan 1921-yil oktyabr oyida Bolalar Komissiyasi (BK) tashkil etilgan va keltirilayotgan bolalarni qabul qilish, joylashtirish ishlari bilan shug‘ullangan.

Komissiya ilk faoliyatida ko‘plab ijobiy natijalarga erishib, 1921-yil 5-noyabr holatiga BK Toshkentga – 445, Avliyo otaga (hozirgi Jambil) – 350, Samarqandga – 500, O‘shga – 100, Bayramaliga (hozirgi Murg‘ob) – 100, Jizzaxga – 87 nafar bola joylashtirgan va oilalarga 8 923 bolani tarbiyaga topshirishga erishgan.

Asosiy faoliyati Ocharchilik bolalariga yordamlashish bo‘lib tashkil etilgan BK 1922 yil aprelda Volgabo‘yi bolalari kelishi kamayishi sabab faoliyati to‘xtatilib, Maorif XK (Xalq Komissarligi) tasarrufiga o‘tkazilgan. Natijada, komissiya faoliyati e‘tibordan chetda qolib, ko‘plab muammolarni boshdan o‘tkazgan. 1922 yil sentyabrda Komissiya raisi Kadushkin faoliyatidan norozi a‘zolar Turkiston MIQga murojaat qilgach, mavjud muammolar o‘rganilib, 1922 yil 5 oktyabrda Turkiston MIQ Bolalar komissiyasi Ochlarga yordam Markaziy Komissiyasiga qayta topshirilib, Evakuatsiya markazi rahbari A.S.Sushko rais etib tayinlangan va 1924-yil 3-iyungacha faoliyat yuritgan. Mazkur tayinlov amalga oshirilishidan ko‘p o‘tmay, 1922-yil 10-oktyabrda Komissiya davlat boshqaruvidagi o‘zgarishlar

sabab — Turkiston MIQ bolalar hayotini yaxshilash komissiyasi tarzida, 1924-yil 13-dekabrda mazkur qarorga o‘zgartirish kiritilib, O‘zSSR MIQ qoshida qayta tashkil qilingan. Milliy-hududiy chegaralanish natijasida 1925-yil 29-sentyabrdagi 116-son Nizomga muvofiq Bolalar markaziy komissiya O‘zSSR MIQ qoshida qayta tashkil etilib, —O‘zbekiston Leninchi yoshlar kommunistik ittifoqi Markaziy komissiyasi,

—Qizil xoch rus jamiyatil, —Qo‘shchi jamiyatil faoliyatini birlashtirib borishi belgilangan.

Mahalliy Ijroqo‘mlar tomonidan komissiyani qayta tashkil etish masalasi O‘zSSRning 1925-yil 15-oktyabridagi 40-son Qaroriga muvofiq yo‘lga qo‘yish shartligi belgilanib, 1926-yilda 6 ta viloyat, 12 ta uyezd va 2 ta tuman bolalar komissiyasi tashkil etilgan. Mazkur komissiyalarga mablag‘ ajratish, ularning moddiy-texnik holatini yaxshilash va hokazolar

Mahalliy hukumat mavjud vaziyatda Komissiyaga ko‘maklashish maqsadida ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirgan bo‘lsa-da, samarasi sezilarli darajada bo‘lmagan. O‘zSSR MIQ va XKS ning 1926 yil 13-avgustda —Bolalar qarovsizligiga qarshi kurashish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorga ko‘ra Bolalar komissiyalari qoshidagi birlashma, tashkilot va jamoalarga soliq, ijara imtiyozlari, reevakuatsiya bileti kabilarga 50 % imtiyoz belgilangan va MBK ixtiyoridagi 1926-yil 4-Kazino (g‘arb mamlakatlarida: qimorxon, ko‘ngil ochish uylari), 1-restoran, 2-magazin, 1-havo pistoleti (atraksion o‘yin)dan 740 639 so‘m daromad olgan. 1926-1927 yilda bolalar ta‘minoti to‘liq mahalliy budjetga o‘tkazilishi vaziyatni yana murakkablashtirib, O‘zSSR MIQ Prezidiumi 1926-yil 16-oktyabrda savdo orqali daromad olishi uchun MBKga 50 000 rubl kredit, SSSR MIQ zaxira fondidan 200 000 rubl ta‘minot ajratgan. 31-oktyabrda esa MBK 11-son yig‘ilish bayonnomasiga ko‘ra, 1926-1927- yillarda har bir bolalar komissiyasiga 4 tadan shtat birligi qo‘shilib tungi qorovul, farrosh, shifokor va pionerlar rahbari shtatlari ajratilgan va bu o‘z navbatida bolalar komissiyalari faoliyatiga qisman bo‘lsa-da ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, 1926 yil 1 iyulda 6 ta viloyat, 11 ta uyezd, 2 ta tumanda bo‘lgan bolalar komissiyasi 1927 yilda 10 ta okrug va 12 ta tumanda faoliyat yuritgan. 1927-yil OBK (Okrug Bolalar Komissiyasi)lar ixtiyorida 7 ta kazino, 1 ta restoran, 5 ta manufaktura do‘konlari, 1 ta tamaki magazini, 1 ta vino magazini bo‘lib, 1927-1928-yil MBK pivoga aksiz qo‘shilishidan 7 000 000, o‘yin kartalari qo‘shimchasidan 850 000, Ittifoq respublikalari fondlariga tushgan mablag‘ 20 % ajratmasidan 500 000, qo‘shimcha foyda soliq ajratmasidan 1 500 000 va boshqalardan jami 13 200 000 rubl daromad qilgan. Mazkur daromadlar o‘z navbatida 1927 yil oktyabrdan 1928- yil oktyabrgacha chetdan kelgan 1 578 nafar bolani Toshkentga 400, Samarqandga 410, Qo‘qonga 201, Buxoroga 130, Andijonga 222, Qashqadaryoga 84, Zarafshonga 50, Xo‘jandga 40, Surxondaryoga 35, Xorazmga 6 nafar ko‘rinishda taqsimlash, 351 nafar bolani yurtiga yoki qarindoshiga qaytarish, 46 bolani patronat qilish 174 kabilarga sarflanib, qarovsizlar holatini bir muncha yengillashtirgan.

Shuningdek, tarbiyasi og‘ir bolalar uyi tuzishga 35 000 rubl Karmanada o‘zbek qizlar bolalar uyi tuzishga 10 000 rubl, Buxoro shahrida 75 kishilik bolalar qabul-taqsimoti tuzishga 40 000 rubl, Surxondaryo okrugida bolalar uyi qurishga 20 000 rubl, Toshkent, Samarqand, Termiz, Xo‘jand, Qo‘qon, Karmana, Buxoro, Behbudiy

(Qarshi), Xiva shaharlarida 10 ta maktabgacha bolalar bog'chalarini tuzishga 60 000 rubl, Samarqanddagi 3-son bolalar uyi qoshida o'zbek qizlar uchun paypoq to'qish ustaxonasi tuzishga 7 000 rubl, Samarqandda namunaviy bolalar klubi tuzishga 15 000 rubl, Andijondagi bolalar uylari hayotini yaxshilashga 5 000 rubl, Xorazmdagi bolalar uylari hayotini yaxshilashga 3 000 rubl, okrug ijroqo'mlari bilan kelishgan holda ehtiyojmand onalarga 25 ta yotoqxonalar tashkil etishga 8 250 rubl, 8 mart bayrami munosabati bilan yolg'iz va kam ta'minlangan onalarga bir martalik nafaqalar berishga 3 000 rubl mablag' ajratish va 100 ta kam ta'minlangan, ehtiyojmand onalarga yil yakuniga qadar har oy 12 rubl, 50 tiyin, miqdorida moddiy yordam, 50 nafar tashlab ketilgan bolalar uchun har oy 25 rubldan nafaqa berishga 7 500 rubl, umumiy 221 250 rubl ajratish belgilangan. Bu esa bolalar qarovsizligini keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga ham xizmat qilgan. Sababi yolg'iz, ehtiyojmand onalarga ko'rsatilgan yordam ularning bolalari qarovsizligining oldini olgan.

Hududlarda faoliyat yuritayotgan komissiyalar o'z navbatida ko'plab ijobiy natijalarga ham erisha olgan. Toshkent VBK 1925 yil aprelida qaramog'ida 6 ta bolalar uyi, 1 240 tarbiyalanuvchi, 1 ta qishloq xo'jaligi kommunasi, 100 ko'cha qarovsizlari bo'lib, SSSR hududidan kunlik kelib qo'shiluvchi bolalar 5-10 nafarni 177 tashkil etgan. Oktyabrga kelib Toshkentda 1 000, Samarqandda 118, Farg'onada 130, Zarafshonda 100 nafar qarovsizlar bo'lib 178, Bolalar komissiya ta'minotida 1 790, nazoratsiz 1 200, bola ro'yxatga olingan 179. Masalaning yana bir jihati borki VBK 1926 yil apreldan sentyabrga qadar Samara va O'rta Osiyo temir yo'llari orqali yuborilgan 116 bola reevakuatsiyasiga mavjud 50 foiz imtiyoz komissiyaga berilmay 180 ularning soni oshishiga sabab bo'lgan va revakuatsiya qilinmay qolgan bolalar soni oshib borgani sabab birgina Mirzacho'l uyezdida 60 kishilik 1 ta internatga 460 nafar qarovsiz bola joylashtirilishi 181 kabi muammolarni ko'paytirgan.

Viloyat va uyezdlardagi BKlar o'z faoliyati uchun imtiyozlardan foydalangan holda daromad topishi ularning faoliyatini kafolatlagan. Ammo daromad topish ishlari hududlarda turlicha bo'lgan. 1925-yil Samarqand BK ixtiyoriy hayriya orqali 950 so'm, Lotodan 13 108.82 so'm 182, 1926-yil 10 oyida Zarafshon BK YULI o'yini eksploatatsiyasidan 5000 so'm ishlagan bo'lsa, Qashqadaryo BK xususiy tadbirkorga 50 so'mga, Farg'ona BK Kazino eksploatatsiyasini o'ziga 35 %, tadbirkorga 65 % ko'rinishda topshirgan 183. O'zSSR MBK tomonidan 1926 yil iyul holatiga Toshkentda 6 ta bolalar uyida 621, Samarqandda 2 ta bolalar uyida 160, Zarafshonda 2 ta bolalar uyida 170, Qashqadaryoda 1 ta bolalar uyida 50, Farg'onada 2 ta bolalar uyida 100 jami Respublika 13 bolalar uyida 1 101 bola qamrovi va 694 bolaga kunlik 22 so'm individual yordami shakllantirilgan.

MBK o'z navbatida bolalar muassasalari ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, XX asr 30 yillari ikkinchi yarmiga kelib ham ahvol yaxshilanmagan. MBK instruktori Aminov 1936-yil 21- iyunda maktabgacha yosh bolalar uyini o'rganib u yerda bolalar

qishki, yozgi joysiz, chiqindi yonida o'ynashi, ko'rpalar kam, tibbiy yordam qoniqarsiz, 10 shatat o'rniga 7 tarbiyachi ishlashi, umumiy Respublika bo'yicha 5 000 sog'lom, 150 kasal bolaga 198 joy zaruratini aniqlagan. Shu tarzda Ikkinchi jahon urushi boshlanishi Komissiya ishini yanada murakkablashtirgan. 1941-yilning noyabrda —Frontga yaqin joylardan ko'chirib keltirilgan bolalarni joylashtirish haqidagi qaror bilan Toshkent shahridagi markaziy temir yo'l vokzali qoshida N.P.Kraft rahbarligida —Bolalarni evakuatsiya qilish punktil va uning

Kogon, Samarqand, Qo'qon va Brevskda shaharlarida bo'limlari tashkil etilgan. Evakuatsiya ishi barcha davlat organ va tashkilotlari xususan Komissiya faoliyatida eng og'ir damlar bo'lib xizmat qilgan. Keltirilayotgan bolalar soni kun sayin oshib borib, 1943 yil MBK umumiy 18 660 bolani ro'yxatga olgan va 5 572 nafar bolalar va go'daklar uylariga, 8 897 nafar JST, hunarmand va temir yo'l uchilishlariga, jami 14 469 bola joylashtirilgan 199 joylashtirgan va shu tartibda bolalar qarovsizligini bartaraf etishda o'z faoliyatini olib borgan.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, mazkur davrda bolalar qarovsizligini bartaraf etish maqsadida bir qancha komissiyalar tashkil etilgan. Mazkur komissiyalar ko'proq qarovsiz bolalarni oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlashga e'tibor qaratgan. Bolalar komissiyalari O'zbekistonda ko'plab sa'y-harakatlar amalga oshirgan bo'lsa-da, bolalar qarovsizligini keltirib chiqaruvchi omillarga qarshi kurashish yo'lga qo'yilmagan edi. Boshqacha aytganda, bolalar qarovsizligini bartaraf etishda bolalar komissiyalari faoliyati ancha samarador asoslarda tashkil etilgan bo'lsa-da, yetarlicha e'tibor, moddiy ko'maksiz o'zining kutilgan natijasini bermadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Директивы ВКП (б) и Постановления Советская правительства о народном образовании(1917-1947). – Москва: Литература, 1947. – С.228.
2. Расулов А.Н. Туркистон халқи бағрикенглиги (XX аср 20-йиллари бошларида Россиядан эвакуация қилинган болалар мисолида). – Тошкент: Янги нашр, 2011. 15-бет.
3. Зензинов В. Безпризорные. – Париж: Современный Записки, 1929. – С.16.
4. Софинов П. Очерки истории ВЧК (1917–1922 гг.). – Москва: Политической литературы, 1960. – С.215.
5. Расулов А.Н. Туркистон ва Россия халқлари ўртасидаги муносабатлар. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2016. 25-бет.
6. Расулов А.Н. Туркистон ва Россия халқлари ўртасидаги муносабатлар. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2016. 57-бет.
7. ЎзМА, Р.17-фонд, 1-рўйхат, 398-иш, 1-2-варақ.
ЎзМА, Р.17-фонд, 1-рўйхат, 93-иш, 127-варақ.

- ЎзМА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1869-иш, 2-варақ.
ЎзМА, Р.25-фонд, 1-рўйхат, 1391-иш, 285-варақ.
ЎзМА, Р.837-фонд, 3-рўйхат, 142-иш, 48-варақ.
8. Бендер Е.А. Проблема ликвидации детской беспризорности в Ленинграде и Ленинградской губернии в 9.1923–1931 гг. // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Гуманитарные и общественные науки. 2015. – №2(220). – С.87.
10. ЎзМА, Р.86-фонд, 10-рўйхат, 1491-иш, 97-варақ.
ЎзМА, Р.86-фонд, 10-рўйхат, 1491-иш, 32-варақ.
ЎзМА, Р.1619-фонд, 11-рўйхат, 978-иш, 5-варақ.
11. Калинин А.Д. Организация беспризорных детей. // Материалы 1-ой московской конференции по борьбе с беспризорностью. Борьба с беспризорностью. – Москва, 1924.
12. Калинина А.Д. Десять лет работа по борьбе с детской беспризорностью. – Москва: Московский рабочий, 1928. – С.108.
13. Куфаев В.И. Борьба с правонарушениями несовершеннолетних. – Москва: Новая Москва, 1924. – С.64.
14. Левитана М.И. Беспризорные. Социология. Быт. Практика работа. – Москва: Новая Москва, 1925. – С.466.
17. Люблинский П.И. Борьба с преступностью. – Москва: Козиций, 1923. – С.302